



Tempus



GE-UZ

Geoinformatika: O'zbekistonda barqaror rivojlanishga
erishish www.ge-uз.eu & www.geoinformatics.uz

Bo'limlar

❖ Ochilish marosimlari

❖ Akkreditatsiya

Ochilish marosimlari

2014 yilning 27 mart kuni O'zbekiston milliy universitetida Geoinformatika laboratoriyasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda universitet rektori G'ofurjon Muhammedov, GE-UZ loyihasi koordinatori Bela Markus hamda Geografiya fakultetining professor va o'qituvchilari ishtirok etishdi. Geoinformatika laboratoriysi GNSS texnologiyalari, 2 ta elektron taxeometr, 2 ta nivelir, 8 ta qo'lda olib yuriladigan GPS texnologiyalari va 10 ta zamонави kompyuterlar bilan jihozlandi. Qatnashchilarga GE-UZ loyihasining shu kungacha bo'lgan faoliyati to'g'risida taqdimot qilindi va yangi ochilgan laboratoriya xonasiga tashrif tashkil etildi.



Shu kuni Toshkent arxitektura va qurilish institutida yana bir laboratoriya xonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda universitet rektori, loyiha koordinatori hamda universitetning boshqa professor va o'qituvchilari ishtirok etishdi. Qatnashchilar Tempus GE-UZ loyihasi tomonidan moliyalashtirilgan yangi geodezik

texnologiyalar hamda kompyuter laboratoriya xonasi bilan tanishdilar.



Shuningdek, joriy yilning 28 mart va 4 aprel kunlari Qoraqalpoq davlat universiteti va Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutida yana ikkita laboratoriya xonalari ochildi. Mazkur universitetlarda ham ochilish

marosimlari ko'tarinki ruhda o'tkazildi, tadbir qantashchilari GE-UZ loyihasining faoliyati, O'zbekistondagi hamkor universitetlarda jihozlangan kompyuter xonalari va geodezik texnologiyalar haqida ma'lumotga ega bo'ldilar. Tadbir qatnashchilari o'zlarini qiziqtirgan zamonaviy geodezik texnologiyalar haqidagi ko'plab savollariga javob oldilar.

Akkreditatsiya

O'zbekistondagi hamkor universitetlarda Geoinformatika bo'yicha yangi magistratura mutaxassisligini ochish GE-UZ loyihasining eng asosiy vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan Geoinformatika mutaxassisligi bo'yicha yangi magistratura yo'nalishi uchun Davlat Ta'lim Standarti tasdiqlandi. Joriy yilning 1 iyulidan 31 iyuligacha TIMI da magistratura bosqichiga kirish uchun ariza va hujjatlar qabul qilindi. Yangi ochilgan Geoinformatika magistratura yo'nalishida dars berish uchun O'zbekistondagi hamkor universitetlardan professor va o'qituvchilar tanlab olindi. 2014 yilning 2 sentabridan boshlab TIMIda yangi Geoinformatika bo'yicha magistratura mutaxassisligi ishga tushirildi. Institut ma'muriyati tomonidan magistratura bosqichi uchun oltita majburiy va ikkita tanlov mutaxassisliklari, taddiqot faoliyati hamda umumiyl metodologik fanlaridan iborat o'quv rejasi tasdiqlandi.



GE-UZ loyihasi haqida ko'proq ma'lumot olish yoki fikr-mulohazalar bildirish uchun loyiha a'zolariga quyidagi manzillar orqali murojaat qiling:

Prof Dr. Bela Markus,

GE-UZ TEMPUS loyihasi koordinatori

Geoinformatika fakulteti,

G'arbiy Vengriya Universiteti.

Pirosalma u 1-3. Székesfehérvár H-8000

Email: ge-uz@geo.info.hu

yoki

Odil Akbarov

GE-UZ TEMPUS loyihasi milliy koordinatori

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti,

Qori Niyoziy 39, Toshkent UZ-100000

Email: odilxon@yahoo.com